

TARIXIY YOZMA MANBALARNI TANQIDIY-TAHLILIIY O‘RGANISHGA YO‘NALTIRILGAN AMALIY VA SEMINAR MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH USULLARI

Ergashbayev Shoxruhbek Shuxratjon o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti

tadqiqotchisi

Tel.: +998945051585

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22959666>

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida tarix yo‘nalishi talabalarining tarixiy yozma manbalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy va seminar mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik asoslari yoritilgan. Manbani tashqi va ichki tanqid qilish bosqichlariga tayangan holda mashg‘ulotning besh bosqichli modeli taklif etilgan, “manba dossiyesi”, qiyosiy matn tahlili, “tarixchi laboratoriyasi”, rolli o‘yin, munozara hamda raqamlashtirilgan arxiv va kutubxona resurslaridan foydalanish usullarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Talabalarning tanqidiy-tahliliy kompetensiyasini baholash mezonlari ishlab chiqilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixiy manba, manbashunoslik, tashqi tanqid, ichki tanqid, tanqidiy fikrlash, seminar mashg‘uloti, amaliy mashg‘ulot, interfaol metodlar, raqamli arxiv, tarixiy tafakkur.

Аннотация. В статье раскрываются методические основы организации практических и семинарских занятий, направленных на формирование у студентов исторических направлений вузов навыков работы с историческими письменными источниками. На основе этапов внешней и внутренней критики источника предложена пятиэтапная модель занятия, проанализированы дидактические возможности методов «досье источника», сравнительного анализа текстов, «лаборатории историка», ролевой игры, дискуссии, а также использования оцифрованных архивных и библиотечных ресурсов. Разработаны критерии оценки критико-аналитической компетенции студентов и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: исторический источник, источниковедение, внешняя критика, внутренняя критика, критическое мышление, семинарское занятие, практическое занятие, интерактивные методы, цифровой архив, историческое мышление.

Abstract. The article discusses the methodological foundations of organizing practical classes and seminars aimed at developing history students' skills in working with written historical sources. Based on the stages of external and internal source criticism, a five-stage lesson model is proposed, and the didactic potential of the “source dossier”, comparative text analysis, the “historian’s laboratory”, role play, debate, and the use of digitized archival and library resources is analyzed. Criteria for assessing students’ critical-analytical competence are developed, and practical recommendations are given.

Keywords: historical source, source studies, external criticism, internal criticism, critical thinking, seminar, practical class, interactive methods, digital archive, historical thinking.

KIRISH

Tarix fanini o’qitishning pirovard maqsadi talabalarga tayyor faktlar yig’indisini yetkazishdan emas, balki ularda o’tmish haqidagi bilim qanday hosil bo’lishini tushunish, dalilni tekshirish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunida ta’lim jarayonida mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko’nikmalarga ega shaxsni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1]. Tarix yo’nalishi uchun bu vazifaning markazida tarixiy yozma manbalar bilan ishlash madaniyati turadi, chunki tarixchining barcha xulosalari oxir-oqibat manba ma’lumotiga tayanadi. Biroq amaliyotda seminar mashg’ulotlari ko’pincha darslik mazmunini qayta so’zlab berish, manbadan esa faqat tasdiqlovchi iqtibos sifatida foydalanish bilan cheklanib qoladi. Talaba manba matnini “haqiqatning o’zi” deb qabul qiladi, uning muallifi, yozilish sharoiti, maqsadi va auditoriyasi haqida savol bermaydi. S. Uaynberg tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, tajribali tarixchi va yangi boshlovchi o’quvchi bir xil matnni butunlay boshqacha o’qiydi: birinchisi avvalo manbaning kelib chiqishiga e’tibor qaratga, ikkinchisi to’g’ridan-to’g’ri mazmunga o’tadi [2]. Demak, tanqidiy o’qish o’z-o’zidan shakllanmaydi, uni maxsus tashkil etilgan mashg’ulotlar orqali tizimli o’rgatish lozim. Mazkur maqolaning maqsadi – tarixiy yozma manbalarni tanqidiy-tahliliy o’rganishga yo’naltirilgan amaliy va seminar mashg’ulotlarining metodik modelini asoslash, unda qo’llaniladigan usullarning didaktik imkoniyatlarini ochib berish hamda natijalarni baholash mezonlarini taklif etishdan iborat.

ASOSIY QISM

1. Masalaning nazariy-metodologik asoslari. Manbani tanqidiy o’rganish metodikasi tarix fanining ilmiy fan sifatida shakllanishi bilan bog’liq. Sh. Langlua va Sh. Senobos manba tanqidini ikki asosiy bosqichga – tashqi (manbaning haqiqiyliigi, kelib chiqishi, matnning asl holatini aniqlash) va ichki (mazmunning ishonchliligi, muallifning samimiyligi va xabardorligini baholash) tanqidga ajratgan [3]. Bu tasnif hozirgacha manbashunoslik ta’limining asosi bo’lib qolmoqda. M. Blok manba o’z-o’zidan “gapirmasligini”, u faqat tadqiqotchi bergan savolga javob berishini ta’kidlagan [4]. Didaktik nuqtayi nazardan bu fikr muhim xulosaga olib keladi: seminar mashg’uloti manbani o’qishdan emas, balki muammoli savol qo’yishdan boshlanishi kerak. Rus manbashunoslik maktabi vakillari esa manbani inson faoliyatining mahsuli sifatida talqin qilib, uni yaratgan shaxsning maqsadi va madaniy muhitini tushunmasdan turib ma’lumotni to’g’ri baholab bo’lmasligini asoslaganlar [5]. Zamonaviy tarix didaktikasida bu g’oyalar “tarixiy tafakkur” tushunchasi doirasida rivojlantirildi. S. Uaynberg tarixchining manba bilan ishlashidagi uchta asosiy evristikani ajratadi: manba kelib chiqishini aniqlash (sourcing), kontekstlashtirish (contextualization) va boshqa manbalar bilan qiyoslab tasdiqlash (corroboration) [2]. P. Seyksas va T. Morton esa “birlamchi manba dalili”ni tarixiy tafakkurning oltita asosiy tushunchasidan biri sifatida ko’rsatib, uni o’quvchilarga bosqichma-bosqich o’rgatish mumkinligini isbotlaganlar [6]. O’zbekiston tarixi bo’yicha seminarlar uchun material sifatida boy manbalar korpusi mavjud. B. Ahmedov tomonidan tizimlashtirilgan Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si, Abulg’oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari kabi yozma yodgorliklar turli davr, janr va muallif pozitsiyasini aks ettirgani uchun tanqidiy tahlil ko’nikmalarini shakllantirishda qulay namuna bo’la oladi [7].

2. Mashg‘ulotning besh bosqichli modeli. Yuqoridagi nazariy qarashlarga tayangan holda, manbani tanqidiy o‘rganishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval. Tanqidiy-tahliliy mashg‘ulot bosqichlari.

Bosqich	Asosiy savollar	Talaba faoliyati	Qo‘llaniladigan usul
1. Muammoli kirish	Nimani bilmoqchimiz? Qaysi manba bunga javob bera oladi?	Muammoli savolni ifodalash, gipoteza ilgari surish	Aqliy hujum, muammoli vaziyat
2. Tashqi tanqid	Kim, qachon, qayerda, qaysi tilda yozgan? Matn asl nusxami, tarjimami?	Manbani atributsiyalash, pasport kartasini to‘ldirish	“Manba pasporti”, faksimile bilan ishlash
3. Ichki tanqid	Muallif nimani, kim uchun va nima maqsadda yozgan? U voqeaning guvohimi?	Muallif pozitsiyasi va xolisligini baholash, fakt va baholarni ajratish	Matnni izohlab o‘qish, “ikki ustunli kundalik”
4. Qiyoslash	Boshqa manbalar nima deydi? Ziddiyatlar sababi nimada?	Ma’lumotlarni solishtirish jadvalini tuzish	“Manba dossiyesi”, qiyosiy tahlil
5. Talqin va refleksiya	Qanday xulosa asosli? Qaysi savol ochiq qoldi?	Argumentlangan esse, taqdimot, o‘zini baholash	Munozara, esse, refleksiya varag‘i

Modelning afzalligi shundaki, u tanqidiy o‘qishni aniq harakatlar ketma-ketligiga aylantiradi. Dastlabki mashg‘ulotlarda o‘qituvchi har bir bosqich uchun yo‘naltiruvchi savollar varag‘ini beradi, keyingi mashg‘ulotlarda esa bu yordam asta-sekin qisqartirilib, talaba algoritmi mustaqil qo‘llashga o‘tadi.

3. Amaliy va seminar mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan usullar.

“Manba dossiyesi” usuli. Bitta tarixiy voqeaga oid 3–5 ta turli xil manba parchasi to‘plam shaklida beriladi. Masalan, XIII asrdagi mo‘g‘ul bosqini mavzusida Juvayniyning “Tarixi jahonkusho”, Rashiddinning “Jome’ ut-tavorix” va Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asarlaridan olingan parchalar qiyoslanadi. Mualliflarning ijtimoiy mavqei, hukmdorlarga munosabati va voqeadan qanchalik uzoqda turganligi talabalarga bir voqeaning turlicha tasvirlanishi sabablarini anglash imkonini beradi. Guruhlar ish natijasini solishtirish jadvali ko‘rinishida taqdim etadi. *Qiyosiy matn tahlili.* Bir davr voqealarini turli nuqtayi nazardan yoritgan ikki manba, masalan, “Boburnoma” va Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlaridagi Shayboniyxon faoliyatiga oid parchalar tanlanadi. Talabalar matndagi faktik ma’lumot va muallif bahosini alohida ranglar bilan belgilab chiqadi. Bu mashq fakti talqindan ajratish ko‘nikmasini shakllantirishda ayniqsa samarali. *“Tarixchi laboratoriyasi”.* Mashg‘ulot qo‘lyozma faksimilesi,

uning turli yillarda amalga oshirilgan tarjimalari va nashrlari bilan ishlashga asoslanadi. Talabalar bir parchaning ikki tarjimasini solishtirib, tarjimon tanlagan atamalar talqinga qanday ta’sir qilishini aniqlaydi. Arab yozuvini biladigan talabalar asl matn bilan ishlash orqali tarjimalardagi farqlarni tekshiradi. Bu usul talabalarni manbashunoslikning yordamchi fanlari – paleografiya, matnshunoslik va xronologiya bilan amalda tanishtiradi. *Rolli o‘yin va “sud jarayoni”*. Talabalar “himoyachi” va “ayblovchi” guruhlarga bo‘linib, muayyan manbaning ishonchliligini dalillar asosida himoya qiladi yoki rad etadi, “hakamlar” guruhi esa argumentlarning asoslanganligini baholaydi. “Manba muallifi bilan intervyu” shaklida esa bir talaba muallif rolda bo‘lib, qolganlar uning xabardorligi va maqsadlari haqida savol beradi. Bunday faoliyat muallif pozitsiyasini tushunishni jonli, emotsional tajribaga aylantiradi. *Munozara va keys-stadi*. Manbalardagi ziddiyatli ma’lumotlar (sanalar, qo‘shin soni, voqealar ketma-ketligi) asosida keys tuziladi. Talabalar ziddiyat sabablarini (ko‘chirish xatosi, muallif manfaati, ma’lumot manbaining yetishmasligi) aniqlab, eng ishonchli variantni asoslab beradi. Bunda muhimi – yagona “to‘g‘ri javob”ni topish emas, balki xulosaning dalillar bilan qanchalik mustahkamlanganini ko‘rsatish. *Raqamli resurslar va sun‘iy intellektidan foydalanish*. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti hamda xorijiy kutubxonalarning raqamlashtirilgan qo‘lyozma fondlari talabalarga asl manba bilan tanishish imkonini beradi. Matnlarni kontent-tahlil qilish uchun matnli tahlil dasturlari (masalan, Voyant Tools) yordamida atamalar chastotasi va kontekstini o‘rganish, voqealarni raqamli xronologik chiziqqa joylashtirish mumkin. Sun‘iy intellekt vositalari yaratgan tarixiy ma’lumotlarni ham talabalar alohida “manba” sifatida tanqidiy tekshirishi lozim: javobni birlamchi manbalar bilan solishtirish, noaniq yoki to‘qima havolalarni aniqlash mashqi raqamli asrda manba tanqidi ko‘nikmasining dolzarbligini yaqqol ko‘rsatadi.

4. Natijalarni baholash mezonlari. Tanqidiy-tahliliy ko‘nikmalarni faqat faktlarni bilish darajasiga qarab baholash yetarli emas. B. Blum taksonomiyasiga ko‘ra, tahlil, sintez va baholash bilishning yuqori darajalari hisoblanadi [8], shuning uchun baholash tizimi aynan shu darajalarni o‘lchashga qaratilishi kerak. Biz quyidagi mezonlarni taklif etamiz (2-jadval).

2-jadval. Tanqidiy-tahliliy kompetensiyani baholash mezonlari

Mezon	Yuqori daraja	O‘rta daraja	Boshlang‘ich daraja
Manbani atributsiyalash	Muallif, davr, janr va nusxa xususiyatlarini to‘liq aniqlaydi	Asosiy ma’lumotlarni aniqlaydi, ayrim jihatlarni e’tibordan chetda qoldiradi	Faqat muallif va nomini ko‘rsatadi
Kontekstlashtirish	Manbani davr sharoiti va muallif muhiti bilan bog‘laydi	Umumiy tarixiy fonni ko‘rsatadi	Kontekstni hisobga olmaydi
Ishonchlilikni baholash	Muallif maqsadi va xolisligini dalillar bilan asoslaydi	Xolislik haqida umumiy fikr bildiradi	Matnni shubhasiz haqiqat deb qabul qiladi

Mezon	Yuqori daraja	O’rta daraja	Boshlang’ich daraja
Qiyoslash	Ziddiyatlarni aniqlaydi va sabablarini tushuntiradi	Farqlarni ko’radi, sababini to’liq ochmaydi	Manbalarni alohida- alohida bayon qiladi
Argumentlangan xulosa	Xulosa manba dalillariga tayanadi, ochiq savollarni ko’rsatadi	Xulosa qisman asoslangan	Xulosa dalilsiz yoki darslikni takrorlaydi

Mezonlar talabalarga mashg’ulot boshida e’lon qilinadi. Bu baholashni shaffof qiladi va talabaning o’z ishini mustaqil tahlil qilishiga, ya’ni refleksiyaga ko’maklashadi. Yakuniy nazoratda talabaga avval ko’rmagan manba parchasi berilib, uni besh bosqichli algoritm asosida tahlil qilish topshiriladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tarixiy yozma manbalarni tanqidiy-tahliliy o’rganish tarix yo’nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligida markaziy o’rin tutadi. Bu ko’nikma tashqi va ichki tanqid, kontekstlashtirish va qiyoslashga asoslangan aniq harakatlar ketma-ketligi sifatida bosqichma-bosqich o’rgatilgandagina samarali shakllanadi. Olib borilgan tahlil asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- 1) seminar mashg’ulotlarini darslik mazmunini qayta so’zlashdan muammoli savol atrofida manbalar bilan ishlashga o’tkazish, har bir mavzu uchun “manba dossiyesi” tayyorlash;
- 2) mashg’ulotlarni “muammoli kirish – tashqi tanqid – ichki tanqid – qiyoslash – talqin” modeli asosida tashkil etish va yo’naltiruvchi savollar varag’idan foydalanish;
- 3) mahalliy manbalar (“Boburnoma”, “Zafarnoma”, “Shajarayi turk” va boshqalar) asosida tarjimalar va nashrlarni qiyoslashga doir topshiriqlar to’plamini ishlab chiqish;
- 4) raqamlashtirilgan qo’lyozma fondlari va matn tahlili dasturlarini o’quv jarayoniga kiritish, sun’iy intellekt yaratgan ma’lumotlarni tekshirishni manba tanqidi mashqi sifatida qo’llash;
- 5) talabalar bilimini baholashda faktlarni yodlash emas, balki atributsiyalash, kontekstlashtirish, ishonchlilikni baholash, qiyoslash va argumentlangan xulosa chiqarish mezonlaridan foydalanish. Taklif etilgan yondashuv nafaqat tarix, balki manba bilan ishlash talab etiladigan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishda ham qo’llanilishi mumkin. Keyingi tadqiqotlarda ushbu modelning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali empirik jihatdan tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O’RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts: Charting the Future of Teaching the Past. – Philadelphia: Temple University Press, 2001.
3. Ланглуа Ш.-В., Сеньобос Ш. Введение в изучение истории / пер. с франц. – М.: Государственная публичная историческая библиотека России, 2004.

4. Блок М. Апология истории, или Ремесло историка / пер. с франц. – 2-е изд. – М.: Наука, 1986.
5. Данилевский И.Н., Кабанов В.В., Медушевская О.М., Румянцева М.Ф. Источниковедение: Теория. История. Метод. Источники российской истории. – М.: РГГУ, 1998.
6. Seixas P., Morton T. The Big Six Historical Thinking Concepts. – Toronto: Nelson Education, 2013.
7. Ahmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
8. Bloom B.S. (ed.) Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: David McKay, 1956.